

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**TULAGANOV SARDOR ANVAROVICH**

**TEXNOGEN XOMASHYODAN NANODISPERSLI AMORF  
KREMNIY DIOKSIDINING SINTEZI VA FIZIK-KIMYOVIY  
XOSSALARI**

**01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Tulaganov Sardor Anvarovich**

Texnogen xomashyodan nanodispersli amorf kremniy dioksidining sintezi va fizik kimyoviy xossalari..... 3

**Тулаганов Сардор Анварович**

Синтез и физико-химические свойства нанодисперсного аморфного диоксида кремния из техногенного сырья..... 21

**Tulaganov Sardor Anvarovich**

Synthesis and physicochemical properties of nanodispersed amorphous silicon dioxide from technogenic raw materials..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**TULAGANOV SARDOR ANVAROVICH**

**TEXNOGEN XOMASHYODAN NANODISPERSLI AMORF  
KREMNIY DIOKSIDINING SINTEZI VA FIZIK-KIMYOVIY  
XOSSALARI**

**01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4357 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

**Dissertatsiya O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.**

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb- sahifasida ([www.iplt.uz](http://www.iplt.uz)) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kurbanov Mirtemir Shodiyevich**  
Texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ziyamuxamedova Umida Alijonovna**  
Texnika fanlari doktori, professor

**Maxmanov Urol Kudratovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, kat.i.x.

**Yetakchi tashkilot**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat  
Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «6» dekabr soat 16-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (99871) 262-32-54, e-mail: [info@iplt.uz](mailto:info@iplt.uz), Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel: (99871) 262-31-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «22» noyabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil «22» noyabrdagi 7 raqamli reestr bayonnomasi)



**X.B. Ashurov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, texnika fanlari  
doktori, professor

**I.D. Yadgarov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
f.-m.f.d., professor

**U.K. Maxmanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi  
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati.** Jahonda bugungi kunda nanoo'lchamdagi amorf kremniy dioksidi ( $\text{SiO}_2$ ) qishloq xo'jaligida, tibbiyotda, sanoatning turli tarmoqlarida, shuningdek, nano va mikro o'lchamli  $\text{SiO}_2$  zarralari rezina, plastmassa, sun'iy teri ishlab chiqarishda to'ldiruvchi sifatida va lak-bo'yoq mahsulotlari (bo'yoqlar, yelimlar, gellar va germetiklar)da to'ldiruvchi sifatida qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, amorf xolatdagi nanodispersli  $\text{SiO}_2$  sirt strukturasi samarali xususiyatlari sabab tibbiyot, farmatsevtika va boshqa sohalarda keng qo'llaniladigan juda yaxshi sorbent hisoblanadi. Ushbu material mikroelektronikada izolyatsiyalovchi qatlam sifatida hamda issiqlikka chidamli materiallar, gidrofob qoplamalar yaratishda va oziq-ovqat mahsulotlarining barqarorligini saqlashda muhim xomashyo bo'lganligi sabab sanoatda jiddiy ehtiyojni hosil qilmoqda.

Dunyoda nanoo'lchamli kremniy dioksidiga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi bilan, yangi turdagi xomashyo, jumladan, texnogen xomashyoni izlash va ularni iqtisodiy jihatdan samarali amorf nanoo'lchamdagi kremniy dioksidi sintez qilish uchun ratsional usullarda qayta ishlash ustivor vazifalardan biri hisoblanmoqda. Bundan tashqari, mavjud texnologiya bo'yicha amorf  $\text{SiO}_2$  sintezi ko'p tonnalik tabiiy xomashyodan foydalanishga asoslangan bo'lib, bunda ko'plab zararli reagentlarning qo'llanilishi, yuqori energiya iste'molini talab qilishi sababli texnogen xomashyodan foydalanib resursni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda ilm-fan rivojiga, zamonaviy nanotexnologiyalarni ishlab chiqishga va yangi nanomateriallar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, har yili ortib borayotgan metallurgiya texnogen chiqindilarini qayta ishlash va ulardan iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan qimmatbaho mahsulotlar, jumladan, nanomateriallar olish hamda ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini har tomonlama o'rganish va qo'llanilish mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash bo'yicha ratsional texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2789-sonli Farmoni va 2019-yil 22-avgustdagi "Xo'jalik va maxsus sohalarda energiya samaradorligini oshirish, energiyani tejash texnologiyalarini joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor choralar to'g'risida"gi PF-4422-sonli Farmonlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiyaning tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hozirda eng keng qo'llaniladigan pirogen kremniy dioksidi nanozarrasi maxsus kimyoviy xomashyo –  $\text{SiCl}_4$  ning vodorod-kislород alangasida yuqori haroratli gidrolizi yo'li bilan sintez qilinadi, bu esa katta energiya talab qiluvchi va ekologik jihatdan xavfli usuldir. Muammoni hal qilish uchun resurs va energiya tejankor hamda ekologik xavfsiz texnologiyalarni, xususan, texnogen chiqindilar, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi qo'shimcha mahsulotlaridan foydalanishga asoslangan sintez usullarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

E.D. Hyde (Avstraliya), G. Singh (Hindiston), H.B. Dizaji (Germaniya), Q. Wang (Xitoy), D.P. Sharma (Hindiston), Zh. Yuan (Kanada) va D. Dhaneswara (Indoneziya) ishlarida amorf kremniy dioksidini suyuq fazada sintez qilish usullarining istiqbollari haqidagi xulosalar keltirilgan. Bu usullar iqtisodiy jihatdan ustunlikka ega bo'lib, yuqori haroratli gaz usullariga qaraganda kamroq energiya talab qiladi. Tadqiqotlarda resursni tejaydigan va ekologik xavfsiz sintez texnologiyalari taklif qilingan bo'lib, guruch po'chog'i, mis ishlab chiqarish chiqindilari, issiqlik elektr stansiyalari kuli, turli o'simliklar, bambuk barglari va hokazolardan foydalanilgan. IQ-Furye spektrlari texnogen xomashyo yoki o'simliklardan sintez qilingan kremniy oksidining tipik spektrlari bilan o'xshash, ammo OH-guruhi intensivligi bilan farq qiladi, bu suv miqdori bilan bog'liq. Kremniy oksidi qizdirilganda, fizik jihatdan bog'langan suv chiqariladi va silanol ( $\text{Si-OH}$ ) guruhlarini kondensatsiyalanib, siloksan ( $\text{Si-O-Si}$ ) guruhlarini hosil qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlarda fizik jihatdan sorbsiyalangan suvni to'liq chiqarib, ammo silanol guruhlarini saqlab qoladigan aniq harorat darajasi haqida bir xulosaga kelingan emas.

V. Gun'ko, V. Zarko, A. Chuyko, E. Pakhlov (Ukraina) yuqori dispersli kremniy ikki oksidlarini gaz va suyuq muhitlarda o'rganishdi. Ular pirogen kremniy oksidining morfologiyasi va sirt strukturasi tabiatining suvli dispersiyalardagi xususiyatlariga ta'sir qilish qonuniyatlarini aniqladilar. Solishtirma sirt maydoni  $S_{\text{BET}}$  qiymati kamayishi bilan birlamchi zarralarning agregatsiyasi va adsorbsion sig'imi kamayishi ko'rsatilgan. Suv adsorbsiyasi  $S_{\text{BET}}$  qiymati ortishi bilan oshadi, ammo sirt gidroksillari (OH) uchun teskari effekt kuzatiladi. Kremniy oksidining erish tezligi  $S_{\text{BET}}$  qiymati va pH oshishi bilan ortadi. Biroq, sirt zaryadi zichligi va zeta-potensial moduli  $S_{\text{BET}}$  qiymati kamayishi bilan ortadi.

L. Khouchaf (Fransiya), Kh. Boulahya (Ispaniya), Nicolopoulos (Belgiya) va P.P. Das (Ispaniya) ishlarida kremniy oksidining nanostrukturallari va uning gidrotermal reaksiyalari turli vaqt oralig'ida o'rganildi. Si-OH guruhlarining zarralar sirt strukturasi hosil bo'lishi amorf kremniy oksidining nanostrukturallari va nanog'ovaklarining kattalashishi bilan birga kelishi aniqlandi. Olingan materialning amorf tabiati va yuqori burchaklar tomon siljigan keng diffuz pik tezlashtirilgan ishqoriy-kremniy reaksiyasi bilan ishlov berilgan materialning reaksiya vaqti oshishi tufayli kuzatildi.

Ko'plab tadqiqotlarga qaramay, mavjud amorf nanoo'lchamdagi kremniy dioksidini sintez qilish texnologiyalari hali ham katta energiya talab qiluvchi, ko'p mehnat talab qiluvchi, ekologik jihatdan xavfli, maxsus xomashyo va ko'p

reagentlarni talab qiluvchi usullardir. Bu shuni anglatadiki, ushbu materialni sintez qilishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish, bu xususiyatlar sintez usuli, sharoitlari va boshlang'ich xomashyo turiga katta darajada bog'liq bo'lgan holda, yetarli darajada o'rganilmagan, shu sababli ushbu dissertatsiya tadqiqotlari ushbu masalaga bag'ishlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq, Institutning 2021-yilgi ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida "Mahalliy xomashyo asosida nanotexnologiya materiallari va iqtisodiyot tarmoqlarida qo'llanilishi uchun berilgan xususiyatlarga ega kremniy birikmalarining mikro va nanozarralarini sintez qilish texnologiyasini rivojlantirish" mavzusidagi tadqiqotlar va 2020-2023 yillarga mo'ljallangan №FZ-201907045 "Olmaliq KMK shlaklaridan rangli va qimmatbaho metallarni ajratib olish uchun tajriba-sanoat uskunasi yaratish" ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** metallurgiya sanoatining texnogen xomashyosidan amorf kremniy dioksidining nanozarralarini sintez qilishning samarali usulini ishlab chiqish, shuningdek, uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini pirogen kremniy oksidi bilan solishtirish orqali o'rganish va aniqlashdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ftorammoniy texnologiyasi asosida metallurgik texnogen xomashyodan yuqori dispersli amorf kremniy dioksidini sintez qilish metodikasini ishlab chiqish;

kremniy tarkibli texnogen xomashyoni qayta ishlash uchun tajriba-sanoat uskunasi ishlab chiqish, yaratish va sinovdan o'tkazish, shuningdek, ushbu uskunani "Olmaliq KMK" mis ishlab chiqarish shlaklari va "O'zmetkombinat" AJ ferrosilitsiy ishlab chiqarish mikrokremnizemi kabi metallurgik texnogen chiqindilardan yuqori dispersli kremniy dioksidini ajratib olish uchun qo'llash;

taklif etilayotgan texnologiya bo'yicha yuqori sifat va maksimal SiO<sub>2</sub> chiqishini ta'minlaydigan yuqori dispersli amorf kremnizemni sintez qilishning optimal sharoitlarini aniqlash;

foydalanilgan boshlang'ich xomashyo turiga qarab sintez qilingan SiO<sub>2</sub> zarralarining o'lchamlari bo'yicha taqsimoti, o'ziga xos sirt strukturasi va g'ovakligini o'rganish;

metallurgik texnogen xomashyodan sintez qilingan kremnizemlarning morfologiyasi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini kompleks o'rganish va ularni A-60 markali pirogen kremnizem xususiyatlari bilan solishtirish;

texnogen chiqindilardan sintez qilingan yuqori dispersli kremniy dioksidi zarralarining suvli muhitdagi xususiyatlarini, shu jumladan suv muhitining pH darajasining elektrokinetik potensialga, agregatsion va adsorbsion xususiyatlariga ta'sirini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** – Olmaliq KMKning mis eritish ishlab chiqarishidagi metallurgik texnogen kremniy tarkibli chiqindilar va "O'zmetkombinat" AJning ferrosilitsiy ishlab chiqarish chiqindilaridir. Metallurgik texnogen xomashyoni qayta

ishlash uskunasi va uning optimal ishlash rejimlari, shuningdek, sintez qilingan nanodispers amorf kremniy dioksidi tadqiqot ob'ektlaridir.

**Tadqiqot predmeti** – texnogen xomashyoni ftorid usuli bilan qayta ishlash va suyuq fazada amorf kremniy oksidini sintez qilishning fizik-kimyoviy jarayonlari, shuningdek, sintez qilingan amorf kremniy dioksididir.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsion ishni bajarishda elektron mikroskopiya (SEM va TEM), rentgen difraksiyasi, infraqizil spektroskopiya, lazer korrelyatsion spektroskopiya, induktiv bog‘langan plazma mass-spektrometriyasi (ISP), Brunauer–Emmett–Teller (BET) usuli, dasturlashtirilgan harorat desorbsiyasi mass-spektrometriyasi, termik tahlil va mikrokalorimetriya metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

metallurgik texnogen kremniy tarkibli xomashyodan nanoo‘lchamli amorf kremniy dioksidini sintez qilish uchun yangi uskuna ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan uskunaning yangiligi shundaki, uning sublimatsiya jarayoni zonasi ikkita qismdan iborat bo‘lib, har biri mustaqil harorat nazorati va xomashyoni harakatlantirish tizimiga ega. Hosil bo‘lgan gazlar sublimatorning boshlang‘ich qizdirish zonasidan chiqariladi, kremniy tarkibli gazning desublimatsiyasi esa alohida sovutish kamerada amalga oshiriladi;

ammoniy geksaftorsilikatning gidroliz jarayoni samaradorligi uning eritmadagi konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lib, maksimal SiO<sub>2</sub> ajratib olish uchun optimal texnologik rejim ammoniy geksaftorsilikati konsentratsiyasi 3 % bo‘lganida samaradorligi yuqori bo‘lishi aniqlandi;

birinchi marta kompleks tadqiqotlar asosida metallurgik texnogen xomashyodan sintez qilingan amorf xolatdagi kremniy dioksidi zarralarining fizik-kimyoviy xususiyatlari pirogen kremnizem bilan solishtirganda o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi;

suvli muhitdagi ammoniy geksaftorsilikat konsentratsiyasi 3 dan 20 % gacha oshganda, sintez qilingan kremnizem zarralarining samarali diametri 4 baravar oshishi aniqlandi;

kremniy dioksidi zarralarining effektiv diametri suv muhitining pH darajasiga bog‘liq bo‘lib, SiO<sub>2</sub> zarralarining eng kuchli aglomeratsiyasi kislotali muhitda (pH 2,38-2,54) kuzatilishi, hamda bu yerda hosil bo‘ladigan aglomeratlar ishqorli muhitdagiga qaraganda 4 baravar yirik bo‘ladi, bu holat A-60 markali pirogen kremnizem uchun 2 baravar kam ekanligi aniqlandi;

birinchi marta taklif qilingan texnologiya bo‘yicha metallurgik texnogen xomashyodan sintez qilingan materiallarning kation va anion bo‘yoqlarga nisbatan turli sorbsion xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkinligi aniqlandi, bu zarralar sirt strukturasi turli zaryadga ega ekanligidan dalolat beradi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

ftorammoniy texnologiyasiga asoslangan metallurgik texnogen kremniy tarkibli chiqindilarni qayta ishlash va amorf kremniy dioksidi nanozarralarini sintez qilish uchun yangi tajriba-sanoat uskunasi ishlab chiqildi va tayyorlandi;

metallurgik texnogen xomashyoni qayta ishlash va undan yuqori tozalikdagi (99,97%) nanodispers amorf kremniy oksidini sintez qilishning iqtisodiy samarali

usuli ishlab chiqildi. Ushbu usulda jarayonning maksimal harorati 400 °C dan oshmaydi va qayta tiklanadigan bitta reagentdan foydalaniladi;

metallurgik texnogen xomashyo asosida nanodispers amorf kremniy oksidini sintez qilish uchun maksimal samaradorlikni ta'minlovchi optimal sharoitlar taklif etildi;

qo'llanilish sohalarini aniqlash uchun kremniy oksidi nanozarralarining fizik-kimyoviy xususiyatlari sintez usuli va sharoitlari hamda ishlatilgan xomashyo turiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy standartlashtirilgan usullar va qo'shimcha tadqiqot usullarini qo'llash, yuqori aniqlikdagi asboblardan foydalanish, shuningdek, aniq statistik natijalar olish uchun eksperimental ma'lumotlarning borligi bilan asoslanadi. Natijalarning ishonchliligi, shuningdek, zamonaviy eksperimental texnologiyani qo'llash va olingan natijalar va boshqa mualliflarning ma'lumotlari bilan muvofiqligiga asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* texnogen kremniy tarkibli xomashyolarni qayta ishlash uchun yangi qurilmani yaratish va uning ilmiy asoslanishida, ftorid ammoniy bilan o'zaro ta'sir mexanizmi, ammoniy geksaftorosilikatining sublimatsiya va gidroliz jarayonining kinetikasini ishlab chiqishdadir, bu esa yuqori tozalikdagi nanodispers amorf kremniy dioksidini sintez qilish imkonini beradi. Turli texnogen xomashyolardan olingan kremniy oksidi nanozarralarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini pirogen kremniy oksidi bilan solishtirish va ularning suvli muhitdagi xossalari o'rganish amorf kremniy oksidining tabiati haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lish uchun keng qamrovli nazariy tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ishlab chiqilgan texnologiya har qanday qattiq kremniy tarkibli xomashyoni qayta ishlash va undan nanodispers kremniy oksidini sintez qilish uchun qo'llanilishi mumkin. Olingan amorf kremniy dioksidini nanozarralari turli sanoat tarmoqlarida, tibbiyot va farmatsevtika sohalarida hamda qishloq xo'jaligida qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Texnogen xomashyodan nanodispers amorf kremniy dioksidini sintez qilishning samarali usuli va uning fizik-kimyoviy xususiyatlari bo'yicha tadqiqot natijalari:

metallurgik shlaklarni qayta ishlash uskunasi uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali modelga patenti olindi (№ FAP 01956, 2022 y.). Natijada, metallurgik shlaklarni qayta ishlash uchun yangi uskuna texnogen xomashyo bilan ftorid ammoniy aralashmasining suyuq va yopishqoq holda qurilma devorlariga yopishib qolishini oldini olishga, shuningdek, reaksiya natijasida hosil bo'ladigan gazlarning absorberga chiqishini yaxshilashga imkon berdi;

metallurgik shlaklarni qayta ishlash uskunasi uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali modelga patenti olindi (№ FAP 02256, 2023 y.). Natijada, metallurgik shlaklarni qayta ishlash uchun yangi uskuna sublimatsiya bo'limidan gazlar va suv bug'larini chiqarib yuborish, ftorlash jarayonining boshlang'ich bosqichida yuzaga keladigan jarayonni vizual kuzatish va nazorat

qilish hamda texnogen xomashyoni qayta ishlash jarayonining xavfsiz sharoitlarini optimallashtirish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari 18 ta xalqaro ilmiy-texnik va ilmiy amaliy anjumanlarda aprobeasiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, 2 ta O'zbekiston Respublikasi patentlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan 4 ta xorijiy va 2 ta respublika ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibiy tuzilishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi, 51 ta rasm, 12 ta jadval va 1 ta ilova qo'shimcha qilinadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining ahamiyati va dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va usullari haqida ma'lumot keltirilgan. Olingan natijalarning ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati ta'riflangan. Ushbu natijalarning ishonchiligi, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi, ishning aprobeasiya natijalari hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobida** zamonaviy adabiyotlar asosida nanodispers amorf kremniy dioksidi  $\text{SiO}_2$  sintezi va uning fizik-kimyoviy xususiyatlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning holati tahlil qilingan, shuningdek, ushbu sohadagi mavjud muammolar bayon etilgan.


**Ikkinchi bob «Boshlang'ich materiallarning xususiyatlari va tadqiqot usullari»** dissertatsiyada ishlatilgan asosiy boshlang'ich materiallarning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi: texnogen chiqindilar — Olmaliq KMK mis shlaklari, mikrosilikat — yuqori dispers texnogen chiqindilar, «Uzmetkombinat» AJ ning F65 markali ferrosilikon ishlab chiqarish chiqindilari, ftorlovchi reagent — ftorid ammoniy ( $\text{NH}_2\text{F}$ ), A-60 markali pirogen  $\text{SiO}_2$  va bo'yoqlar — metilen ko'k (MK) va Kongo qizil (KQ). Shuningdek, boshlang'ich materiallar va yuqori dispers  $\text{SiO}_2$  namunalari o'rganish usullari ham tavsiflangan.

Kremniy tarkibli texnogen xomashyoni qayta ishlashning ftorid usuli bayon etilgan. Bu usulning muhim qismi  $\text{NH}_4\text{F}$  eritmalarining  $\text{SiO}_2$  bilan samarali o'zaro ta'siridir, natijada kremniy tarkibli birikma — ammoniy geksaftorsilikati (GFSA) —  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  hosil bo'ladi.

Ushbu moddani sublimatsiya, desublimatsiya va ammiakli suv eritmasida gidroliz jarayonlari asosida amorf yuqori dispers  $\text{SiO}_2$  sintezi amalga oshiriladi.

Ko'rsatilganki, texnologiyada ishlatiladigan yagona reagent ( $\text{NH}_4\text{F}$ ) yangi  $\text{SiO}_2$  sintez qilish uchun jarayonning boshiga qaytariladi va jarayonning maksimal harorati  $400\text{ }^\circ\text{C}$  dan oshmaydi, bu esa qo'llanilayotgan texnologiyaning muhim afzalligi hisoblanadi.

**Uchinchi bob «Texnogen xomashyodan nanodispers amorf kremniy dioksidi sintez qilish uchun tajriba-sanoat qurilmasini ishlab chiqish va texnologik jarayon xususiyatlarini o‘rganish»** mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tajriba-sanoat qurilmasining (keyingi o‘rinlarda - qurilma) asosiy talablari, tajriba asosida ishlab chiqilgan va tayyorlangan eksperimental qurilma, uning yig‘ish bosqichlari va ishlash prinsipi tasvirlangan. Qurilmaning umumiy konstruksiyasi ishlab chiqilganda mavjud analoglarining kamchiliklari, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik va ekologik xavfsizlik inobatga olingan. Belgilangan talablar asosida qurilma aylanuvchi qiya pech shaklida loyihalashtirilgan (1-rasm).



**1-rasm.** Kremniyli texnogen xomashyoni ftorlash va GFSA sublimatsiyasi uchun ishlab chiqilgan aylanuvchi qiya pechning sxemasi.


Xomashyoni ftorlash samaradorligini oshirish uchun qayta ishlanayotgan aralashmani eng past tezlikda qizdirish amalga oshiriladi. Bu jarayonni past haroratlarda o‘tkazishga, energiya sarfini kamaytirishga va GFSA ni uchuvchan bo‘lmagan aralashmalardan tozalash samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Aylanuvchi qiya pech 2 qismdan iborat: ftorlash pechi va sublimatsiya pechi. Pechlar gorizontal tarzda o‘rnatilgan, bunda ftorlash pechi aylantirilmaydi va xomashyoni pech bo‘ylab harakatlanishi ichiga o‘rnatilgan shnek yordamida amalga oshiriladi, shnekni 850 Vt quvvatli elektromotor boshqaradi. Ftorlash pechining oxirida xomashyo ftorlashdan keyin sublimatsiya pechiga tushiriladi, bu pech tayanchlarda o‘rnatilgan aylanuvchi trubadan iborat. Ftorlash pechida xomashyoni harakatlantirish tezligi shnekning aylanish tezligi orqali boshqariladi.

Texnogen xomashyoni qayta ishlash va ftorid texnologiyasi yordamida amorf  $\text{SiO}_2$  ni sintez qilish umumiy jarayoni sxemasi (2-rasm) quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: boshlang‘ich xomashyoni ammoniy ftoridi- $\text{NH}_4\text{F}$  bilan maydalash va aralastirish;  $\text{NH}_4\text{F}$  va shlakdan iborat aralashmani qizdirish va aralastirish; GFSA sublimatsiyasi va desublimatsiyasi, shuningdek, uning ammiak eritmasida gidrolizini amalga oshirish; ammiak eritmasini filtrlash va  $\text{SiO}_2$  ni olish;  $\text{NH}_4\text{F}$  kristallizatsiyasi va uni texnologik jarayonning boshiga qaytarish;  $\text{SiO}_2$  ni quritish va kuydirish; (mis shlaki qayta ishlangan holda) qimmatbaho komponentlarning kollektiv konsentratini olish.

Qurilmaning sublimatsiya blokiga yangi texnik yechim ishlab chiqilgan bo‘lib, u kremniy tarkibli xomashyoni ftorid ammoniy bilan qizdirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Bu yechim xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning apparat devorlari hamda ularning harakatlanish va

aralashtirish moslamalari yuzasiga yopishib qolishini oldini oladi, shuningdek, reaksiyon gazlarni chiqarish samaradorligini oshiradi. Yangi texnik yechimning mohiyati shundan iboratki, sublimatsiya bo'limi ikki qismdan iborat: ftorlash amalga oshiriladigan harakatsiz qism va harakatlanuvchi qism. Harakatsiz qism xomashyoni yuklash va uni aralashtirish va harakatlantirish vositalariga ega truba shaklida ishlangan, bunda shnek silindrsimon valga o'rnatilgan prujinadan iborat. Harakatlanuvchi qism ham truba bo'lib, u qizdirish vositalari hamda o'zining uzun o'qi atrofida aylanishini ta'minlovchi mexanizmlarga ega. Aylanadigan truba katta diametrlilik boshqa, harakatsiz truba ichida koaksial joylashtirilgan va butun konstruktsiya germetik qilingan.



**2-rasm.** Texnogen xomashyoni qayta ishlash va ftorid texnologiyasi asosida yuqori dispersli amorf SiO<sub>2</sub> sintez qilish jarayonining sxematik tasviri.

Qurilmaning muhim qismi shundan iboratki, harakatsiz truba va katta diametrlilik truba orasida tashqaridan boshqariladigan to'siq o'rnatilgan. Bundan tashqari, harakatsiz truba qizdirilgan xomashyoni aylanadigan truba bo'shlig'iga tushirish uchun vizual kuzatish oynalariga ega, bu oyna germetik tarzda o'rnatilgan va uning bo'shlig'i xomashyoni qizdirish jarayonida chiqarilgan gazlarni absorberga yo'naltiruvchi uchta trubka bilan bog'langan. Qurilmaning yangi qismlari 3-rasmda ko'rsatilgan.



a) uchta kuzatuv oynasidan biri; b) xomashyoni qo'zg'almas trubadan aylanuvchi trubaga to'yuk orqali tushirish uchun dastakli teshik; c) kuzatuv oynalari ostiga germetik tarzda o'rnatilgan va qimirlamas truba tashqarisida joylashgan bo'shliqlar bilan, bir tomondan, ulanadigan quvurlar va boshqa tomondan, absorberning kirish quvurlari bilan bog'langan.

**3-rasm.** Aylanuvchi qiya pechining harakatsiz qismining yangi elementlari va bo'g'inlari.

Yangi qurilma Olmaliq KMK vakillari ishtirokida sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan va tayyorlangan qurilma namunasi ishlashga yaroqli ekanligi, unda Olmaliq KMK mis shlaklaridan yuqori dispers SiO<sub>2</sub>

kukunlarini olish hamda rangli va qimmatbaho metallar konsentratini ajratib olish mumkinligi aniqlandi.


Tayyorlangan qurilmada texnogen xomashyodan yuqori dispers  $\text{SiO}_2$  sintezi jarayoni xususiyatlari o'rganildi.  $\text{SiO}_2$  sintezida GFSA ammiakli suv bilan 10–25% konsentratsiyada,  $\text{pH}=8\div 9$  da va  $25^\circ\text{C}$  haroratda ishlov berildi. Bunday sharoitlarda  $\text{SiO}_2$  ni optimal cho'ktirishga erishiladi, chunki GFSA ni 10% massadan kam bo'lgan eritmasi bilan ishlaganda, filtrlash qiyin bo'lgan qalin massa hosil bo'ladi, 25% massadan yuqori konsentratsiyada esa  $\text{SiO}_2$  chiqishi kamayadi, bu esa texnologiyaning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Filtrlashdan keyin eritmadan  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  ajratilib, yuqori tozalikdagi amorf  $\text{SiO}_2$  kukuni olinadi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sintez qilingan  $\text{SiO}_2$  kukunlari yuqori disperslikka va 99,97 massadan kam bo'lmagan sof  $\text{SiO}_2$  ga ega. Bu ko'rsatkichlarga xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning qurilma devorlariga yopishib qolishi hamda sublimat gazlarining yo'qotilishining oldini olish, ftorlash jarayonida reaksion gazlarini olib tashlashni ta'minlash, jarayonni vizual nazorat qilish va sublimatsiyani boshqarish orqali erishildi.

Ammiak gidrolizining samaradorligi  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  qator omillarga bog'liq. Yakuniy natijaga ammiak va  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  konsentratsiyalari, jarayon davomiyligi va aralashtirish tezligi ta'sir qiladi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki,  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  ning to'liq  $\text{SiO}_2$  ga aylanishi bo'yicha eng yaxshi natijalar ammiakning 20% konsentratsiyasida va jarayon davomiyligi kamida 0,5 soat bo'lganda erishiladi.

$\text{SiO}_2$  ni maksimal miqdorda olish, ya'ni 98% ga teng miqdorda GFSA ning 3% massalik konsentratsiyasi bilan erishilgan, bu ko'rsatkich  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  ning 30% massalik konsentratsiyasi bilan 75 massagacha kamayadi (4-rasm). Shunday qilib,  $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$  konsentratsiyasining gidroliz eritmasida 10 baravar oshishi  $\text{SiO}_2$  kukuni chiqishining 25% ga kamayishiga olib keladi.

Shunday qilib, metallurgiya ishlab chiqarishining kremniy tarkibli texnogen chiqindilarini qayta ishlash uchun yangi tajriba-sanoat qurilmasi ishlab chiqilib, tayyorlandi, u ftorammoniy texnologiyasiga asoslangan. Bu ishlanma texnogen xomashyodan nanoo'lchamdagi amorf  $\text{SiO}_2$  ni sintez qilish imkonini beradi va shu bilan birga mis shlaklaridan foydalanilganda, qimmatbaho metallar konsentratlarini olish mumkin. Xomashyoni qayta ishlash jarayonidagi maksimal harorat  $400^\circ\text{C}$  dan oshmaydi, yagona ishlatiladigan reagent –  $\text{NF}_4$  regeneratsiya qilinib, texnologik jarayon boshiga qaytariladi.




**4-rasm.** GFSA ning turli konsentratsiyalarida ammiak eritmasida gidroliz qilishda kremniy dioksidini ajratib olish darajasi.

**Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida** metallurgiya ishlab chiqarishining texnogen chiqindilaridan sintez qilingan amorf  $\text{SiO}_2$  ning fizik-kimyoviy

xususiyatlari va ularning pirogen usuli bilan sintez qilingan  $\text{SiO}_2$  xususiyatlari bilan solishtirma tahliliga bag'ishlangan.

Skaner elektron mikroskop (SEM) usuli yordamida sintez qilingan amorf  $\text{SiO}_2$  zarralarining morfologik xususiyatlari ko'rsatildi, ya'ni ularga xos bo'lgan muayyan strukturaviy iyerarxiya. Birlamchi nanozarralar agregatlar (50–1000 nm o'lchamda) va ulardan kattaroq aglomeratlar ( $> 1$  mkm) hosil qiladi. Mis shlaklaridan olingan  $\text{Si}_{\text{slag}}$  namunalari uchun sintez jarayonida sferik zarralar va katta agregatlar hosil qilishi kuzatiladi. Mikrosilikatdan sintez qilingan  $\text{Si}_{\text{MS}}$  namunalari uchun esa mayda boshlang'ich zarralar sirt strukturasi yopishgan kichik zarralar ko'rinadi. Katta zarralar agregatlar va aglomeratlar hosil qiladi. Pirogen A-60  $\text{SiO}_2$  esa donador tuzilmalar va kattaroq agregatlar hosil qiladigan ancha kichik sferik zarralardan iborat zich aglomeratlar ko'rinadi.


5-rasmda mis ishlab chiqarish texnologiyasidan olingan  $\text{SiO}_2$  kukunlarining rentgen difraktogrammalari va ferrosilitsiy ishlab chiqarish chiqindisi bo'lgan mikrosilikatdan olingan  $\text{SiO}_2$  keltirilgan. Difraktogramma uchun  $2\theta$  ning 25 darajasi atrofidagi keng cho'qqi umumiy bo'lib, bu namunada rentgen amorf materialning mavjudligi bilan bog'liq.



**5-rasm.** Nanoo'lchamli  $\text{SiO}_2$  zarralarining rentgen difraktogrammalari



Olingan  $\text{SiO}_2$  zarralarining o'lchamlari bo'yicha taqsimoti tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, barcha taqsimotlar bimodal xarakterga ega bo'lib, agregatlardan (130–250 nm) va ularning aglomeratlaridan (1300 nm va 5400–5500 nm) iborat.  $\text{SiO}_2$  namunalari suv suspenziyalarini ultratovus yordamida 1 daqiqadan 25 daqiqagacha 20 kHz chastotada qayta ishlash vaqti o'lchamlar taqsimoti xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatmagani aniqlandi. Shu bilan birga, ultratovushda ishlov berish vaqti 1 daqiqadan 25 daqiqagacha oshishi bilan zarra o'lchamlari deyarli ikki baravardan ko'proq kichraydi. Masalan, hajm bo'yicha 1300 nm dan 600 nm gacha va soni bo'yicha 220 nm dan 100 nm gacha, bu esa aglomeratlarning qisman parchalanishi bilan izohlanadi.

Effektiv diametr ( $D_{\text{ef}}$ ) zarralar o'lchamlarining qayta ishlash jarayonidagi o'zgarishini soddalashtirilgan holda baholash imkonini beradi. 6-rasmdan ko'rinib turibdiki, ultra tovush bilan ishlov berish vaqti 1 daqiqadan 25 daqiqagacha oshganda  $\text{SiO}_2$  ning  $D_{\text{ef}}$  kamayadi. Mis shlaklaridan olingan  $\text{SiO}_2$  namunasida  $D_{\text{ef}}$  qiymati (1600 nm dan 460 nm gacha) mikrosilikatdan olingan  $\text{SiO}_2$  namunasiga qaraganda ancha kichik ekanligi aniqlandi.



**6-rasm.** SiSlag (1) va SiMS (2) olingan SiO<sub>2</sub> kukunlarining suv muhitida ( $C_{SiO_2} = 1$  massa. %) zarralarning  $D_{ef}$  ning ultra tovush bilan ishlov berish vaqtiga bog'liqligi.

Sintez jarayonida  $(NH_4)_2SiF_6$  konsentratsiyasining o'zgarishi SiO<sub>2</sub> zarralarining suv suspenziyalaridagi  $D_{ef}$  ga ham ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. GFSA konsentratsiyasi 3 % mass. bo'lganida,  $D_{ef}$  eng past qiymatiga ~660 nm yetgan, GFSA konsentratsiyasi 20 % ga oshirilganda esa zarralarning agregatsiyasi tufayli  $D_{ef}$  4 martadan ko'proqqa oshgan (7a-rasm).



**7-rasm.** (a)  $D_{ef}$  ning GFSA konsentratsiyasiga bog'liqligi ( $C_{SiO_2} = 1$  massa. %) (b) suv muhitining pH darajasiga bog'liqligi ( $C_{SiO_2} = 0,02$  massa. %).


Ekspiriment natijalari zarra aglomeratlari uchun maksimal  $D_{ef}$  qiymatlarini pH 2,38-2,54 oralig'ida ko'rsatadi (7b-rasm), bu izoelektrik nuqtaga yaqin bo'lib, zarralar orasida elektrostatik itarilish yo'q bo'lgan holatdir. Ftorid usuli bilan sintez qilingan SiO<sub>2</sub> namunalarida kislotali muhitda aglomeratlar hajmining to'rt barobar oshishi, pirogen SiO<sub>2</sub> esa 1,7 marta ortishi kuzatiladi.

Muhit pH qiymatining kuchli ishqoriy sohalarga (pH 9-11) o'zgarishi SiO<sub>2</sub> zarralari  $D_{ef}$  qiymatlarida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmaydi. Ehtimol, bu ishqoriy muhitda sirt gidroksillarining dissotsiatsiya jarayoni kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, bu zarralar orasidagi elektrostatik itarilishni kuchaytiradi.

Barcha tadqiq qilingan namunalar uchun olingan IQ-Furye spektrlari (9-rasm) 468  $cm^{-1}$  (kuchli) va 800  $cm^{-1}$  (o'rtacha intensivlik) da Si-O-Si deformatsion tebranishlarini, shuningdek, Si-O-Si valent tebranishlarini 1000-1200  $cm^{-1}$  oralig'ida (8-a, b, c rasmlar) yutish chiziqlarini ko'rsatadi. Bu aniq chiziqlar SiO<sub>2</sub> ning reaksiya qobiliyatini tavsiflaydi.


OH-guruhlar bilan bog'liq yutilish chiziqlari quyidagicha aniqlanadi: 1) 3740-3750  $cm^{-1}$  oralig'idagi chiziq izolyatsiyalangan sirt silanolarning Si-OH valent tebranishlariga mos keladi; 2) 3540-3550  $cm^{-1}$  oralig'idagi chiziq vitsinal

silanollarga (OH–OH, vodorod bog‘lari orqali bog‘langan qo‘shni OH-guruhlarining izolyatsiyalangan juftliklari) tegishli bo‘lishi mumkin; va 3) 3650-3715  $\text{cm}^{-1}$  oralig‘idagi keng chiziq zarra oralig‘idagi kontaktlar orqali silanollarga tegishli bo‘lib, ular sorbtsiyalangan suv molekulari bilan vodorod bog‘lari orqali bog‘langan. 1636  $\text{cm}^{-1}$  va 3200-3500  $\text{cm}^{-1}$  oralig‘idagi chiziqlar silanol guruhlariga tegishli bo‘lib, bu  $\text{Si}_{\text{slag}}$  va  $\text{Si}_{\text{MS}}$  namunalarda sezilarli darajada mavjud suvning borligini ko‘rsatadi, bu sintez sharoitlarining xususiyatlariga bog‘liq. 8-d rasmga keltirilgan 3750  $\text{cm}^{-1}$  oralig‘idagi yutilish chizig‘i ko‘rinib turibdi, bu asosiy sorbtsiya markazlariga –  $\text{SiO}_2$  sirt strukturasi teng taqsimlangan erkin silanol guruhlariga  $\equiv\text{Si-OH}$  mos keladi. Bu chiziqning intensivligi  $\text{Si}_{\text{slag}}$  va  $\text{Si}_{\text{MS}}$  namunalarda suvning yuqori miqdori tufayli ancha past.



**8-rasm.** A-60,  $\text{Si}_{\text{shlak}}$  va  $\text{Si}_{\text{MS}}$  namunalarning amorf dioksidlarining IQ spektrlari: a) KBr bilan 1:100 nisbatda, g) KBr siz, uzatishda olingan.


Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan  $\text{SiO}_2$  lari uchun  $\zeta$ -potensial kislotali muhitda (pH 2,70 - 2,78) +1,92 mV ( $\text{Si}_{\text{slag}}$  va A-60 uchun) va +14,1 mV ( $\text{Si}_{\text{MS}}$  uchun) ijobiy qiymatga ega. Muhitning pH qiymatini ishqoriy tomonga (12 gacha) o‘zgartirganda,  $\zeta$ -potensialning manfiy qiymatlari -0 dan -28,9 gacha ( $\text{Si}_{\text{slag}}$ , A-60) va -15,7 mV ( $\text{Si}_{\text{MS}}$ ) oralig‘ida kuzatiladi.  $\text{Si}_{\text{slag}}$ ning  $\zeta$ -potensialining pH qiymatiga bog‘liqligi deyarli A-60 uchun chiziq bilan mos keladi (9-rasm), lekin  $\text{Si}_{\text{MS}}$  namunasi uchun  $\zeta$ -potensial qiymati pH=5÷12 oralig‘ida nisbatan barqaror bo‘ladi.



**9-rasm.** A-60,  $Si_{Slag}$  va  $Si_{MS}$  kremniy dioksidlarining suv muhitidagi pH ga bog‘liq zeta-potensialini.

$\zeta$ -potensialning bunday xatti-harakati  $SiO_2$  sirt strukturasi adsorbsiyalangan ionogen gidroksillar va suv molekulari mavjudligi bilan izohlanishi mumkin, ular amfoter tabiati bilan ajralib turuvchi faol markazlar bo‘lib, suvli muhitda dissotsiatsiyalanish qobiliyatiga ega. Yuzadagi ionlashgan markazlarning zichligi sirtning o‘ziga xos zaryadiga javob beradi. Vodorod bog‘lari dissotsiatsiyalanmagan yuzaki markazlar (masalan,  $Si-OH$  guruhlari) ishtirokida yuzaga kelishi mumkin.

